

TO'LOV TIZIMLARINING ZAMONAVIY TURLARI VA ULARNING RAQAMLI BANKLAR BILAN INTEGRATSIYALASHUVI

Matchanov Jamshidbek Uktambay o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
[*matchanovjamshid7@gmail.com*](mailto:matchanovjamshid7@gmail.com)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy to'lov tizimlari, ularning turlari, ular orqali amalga oshirilgan qulayliklar, raqamli banklar bilan integratsiyalashuvi, O'zbekistonda tashkil etilgan milliy to'lov tizimlari, raqamli banklar, xalqaro to'lov tizimlaridagi qulayliklar va banklarda xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq muammolar va ularni hal qilishga qaratilgan amaliy ishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli bank, integratsiya, moneygram, tbc, webmoney, qiwi, zolataya karona, uzcard, humocard, pul o'tkazmalari

АННОТАЦИЯ

В данной статье современные платежные системы, их виды, реализуемые через них удобства, интеграция с цифровыми банками, национальные платежные системы, созданные в Узбекистане, цифровые банки, удобства в международных платежных системах и международные денежные переводы в банках, связанные проблемы и практические работы, направленные на решение обсуждаются проблемы.

Ключевые слова: цифровой банк, интеграция, moneygram, tbc, webmoney, qiwi, золотая карона, uzcard, humocard, денежные переводы

ANNOTATION

In this article, modern payment systems, their types, conveniences implemented through them, integration with digital banks, national payment systems established in Uzbekistan, digital banks, conveniences in international payment systems and international money transfers in banks related problems and practical works aimed at solving problems are discussed.

Keywords: Digital bank, integration, moneygram, tbc, webmoney, qiwi, zolataya karona, uzcard, humocard, money transfers

KIRISH

Masofa endi to'siq bo'lmay qolgan bugungi o'zaro bog'langan dunyoda onlayn to'lov tizimlari va raqamli banklar uzluksiz pul o'tkazmalarini osonlashtiradigan va butun dunyo bo'ylab odamlarni bog'lab turadigan kuchli vosita sifatida paydo bo'ldi. Boshqa davlatdagi oila a'zosiga pul jo'natish yoki xalqaro biznes tranzaksiyalarini

amalga oshirish bo'ladimi, bu raqamli platformalar taqdim etayotgan qulaylik va samaradorlik bizning moliyamizni boshqarish uslubimizni o'zgartirdi.

XXI asrda internet texnologiyalari, gadjetlar, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar jadallik bilan rivojlandi.

Shu qatorda elektron tijorat ham kundan-kunga rivojlanmoqda, bugungi kunda onlayn savdolar kundan kunga umumiy savdoda ulushi yuqorilab bormoqda. Bu savdolarda qilinadigan to'lovlar esa turli xil ilovalar va to'lov tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Elektron to'lov tizimining asosiy vazifasi to'lovlar xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Hozirda elektron hamyonlar ochish imkoniyatini taqdim etuvchi ko'pgina to'lov tizimlari mavjud. MDH davlatlarining ko'pchiligida **Yandeks.Money**, **WebMoney** va **QIWI** kabi elektron to'lov tizimlaridan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda **OSON** elektron pullar tizimi faoliyat olib bormoqda.[1] Bu to'lov tizimlari xalqaro savdolarda ancha yaxshi samara beradi. Ya'ni chet davlatdan olingan tovarlarga ushbu to'lov tizimlarining mobil ilovalari orqali to'lov qilgan holda amalga oshirish mumkun.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Onlayn to'lov tizimlari va raqamli banklar geografik chegaralarning cheklovlarini buzdi. Bir necha marta bosish orqali odamlar o'z hisoblariga kirishlari, pul o'tkazishlari va dunyoning istalgan nuqtasiga to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin. Ushbu qulaylik darajasi foydalanuvchilarga yaqinlari bilan aloqada bo'lish va qayerda bo'lishidan qat'i nazar, oson moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini berib, ularga imkoniyatlar beradi.[2]

O'zbekistonda esa zamonivaiy to'lov tizimi sifatida dastlab Uzcard tizimi tashkil etild. Bu tizim 2004-yilda tashkil etilgani bilan 2011-yilga kelibgina onlayn kartalar ishlab chiqarila boshladi, 2012-yilda sms xabarnoma xizmati ishga tushirilgach iste'molchilarga bir muncha qulayliklar yaratildi.[3]

Keyinchalik 2019-yilda zamonaviy kartalarga ega bo'lgan to'lov tizimi Humocard tshkil etildi.[4] Bu kartalarning afzalligi kantaktsiz to'lovlarni amalga oshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan edi. Bundan tashqari NFC texnologiyasini qo'llab quvvatlaydigan samrtfonlar oraqali kartani telefonga ulash orqali joylarda kart abo'lmagan holatda telefon orqali to'lov qilish ham mumkin bo'ldi.

To'lov tizimlarining raqamli banklar bilan integratsiyalashish jarayoni pandemiya davrida tezlik bilan amalga oshdi.

Mamlakatimizda 2020-yilda birinchi bo'lib tashkil etilgan to'liq raqamli bank hisoblangan Anorbank tashkil etilishi yurtimizda banklar ichida raqobatni yanayam kuchaytirdi.[5]

Iste'molchilarga qulay hisoblangan bu bank, bank xizmatlarini masofadan turib amalga oshirishni yo'lga qo'ydi. Oxir oqibat boshqa banklar ham bu kabi xizmatlarni taqdim qilishga majbur bo'ldi.

Bugungi kunda barcha tijorat banklarining mobil ilvolari ishlab chiqilgan bo'lib ularning barchasi milliy to'lov tizimlarimiz bo'lgan Uzcard va Humocard bilan integratsilayashgan holda oz xizmatlarini taqdim etishmoqda.

Bu ishlar juda yaxshi natija hisoblansada lekin hali ham raqamli banklar va an'anaviy bank ilovalari haligacha xalqaro to'lov tizmlari bilan integratsiyalashmadi. Yuqorida sanab o'tilgan Webmoney, Qiwi kabi xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyalashuv jada katta yengilliklarni keltirardi.

Onlayn to'lov tizimlari va raqamli banklar boshqa raqamli ekotizimlar, jumladan, elektron tijorat platformalari, mobil hamyonlar va tengdosh to'lov ilovalari bilan muammosiz integratsiyalashgan. Ushbu integratsiya foydalanuvchilarga onlayn xaridlarni amalga oshirish, to'lovlarni qabul qilish va mablag'larni osonlikcha o'tkazish imkonini beradi, shu bilan birga ularning umumiy raqamli tajribasini oshiradi va global ulanishni yanada osonlashtiradi.

Onlayn to'lov ilovalari biz aloqada bo'lish va chegaralar orqali pul jo'natish usulini inqilob qildi. Pul mablag'larini tez, xavfsiz va qulay tarzda o'tkazish imkoniyati jismoniy shaxslar va biznes uchun imkoniyatlar dunyosini ochdi. Uzoq mamlakatlardagi yaqinlaringizni qo'llab-quvvatlashdan tortib xalqaro biznes tranzaksiyalarini amalga oshirishgacha bo'lgan ushbu raqamli platformalar uzluksiz moliyaviy o'zaro aloqalar uchun zarur vositalarni taqdim etadi.

Onlayn to'lov tizimlari va raqamli banklar imkoniyatlaridan foydalangan holda, shaxslar chegaralarni ortda qoldirishi va global aloqani rivojlantirishi mumkin.

To'lov tizimlarining raqamli banklar va mobil ilovalar bilan integratsiyalashuvi natijasida to'lovlarni uydan chiqmasdan amalga oshirish mumkun bo'ldi.

Bu ishlar natijasida insonlarning vaqti va puli tejaldi. Oqibatda insonlar boshqa foydaliroq ishlar bilan shug'ullanishiga zamin yaratildi. Bundana tashqari jamiyatda e'tibordan chetda qolayotgan lekin yatarlicha muammo tug'dirayotgan xalqaro pul o'tkazmalaridagi, pulni bankdan qabul qilib olishdagi bankka borish va navbatda turish bilan bog'liq muammolar kun tartibida desak yanglishmagan bo'lamiz. Misol uchun birgina Rossiyadan jo'natilgan pulni olish uchun, qabul qiluvchi fuqoro ertalabdan bankka borib navbat olishi va navbati kelganda qo'liga jo'natilgan pulni qabul qilib olishi mumkun, bu esa kamida 2 3 soat vaqtni oladi. Lekin eng achinarlisi banklarda valyuta yo tugagan bo'ladi yo atayin berishmaydi va oqibatda qabul qiluvchi fuqoro jo'natmani milliy valyutada qabul qilishga majbur bo'ladi.

Bu kabi muammolar katta shaharlarda bilinmas yoki umuman yo'qdir lekin kichik tumanlarda yetarlicha bor.

Oxirgi xabarlariga ko'ra shu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida TBC Bank birinchilardan bo'lib qadam tashladi. Ya'ni TBC Bank Ria va Moneygram tizimlari bilan shartnoma imzoladi.

Unga ko'ra Ria va Moneygram xizmatlari TBC UZ ilovasi foydalanuvchilariga TBC Humo kartasiga to'g'ridan-to'g'ri so'mda mablag' olish yoki ularni virtual Visa kartasida xorijiy valyutada qoldirish imkoniyatini beradi.

Endi xorijdan pul olish uchun bank bo'limiga borib, navbatda vaqt o'tkazish shart emas. TBC Bank bir vaqtning o'zida ikkita xalqaro pul o'tkazmalari xizmatlarini - Ria va Moneygramni ishga tushirdi, bu esa uydan chiqmasdan to'g'ridan-to'g'ri TBC UZ ilovasida pul olish imkonini beradi.[6]

Ushbu xizmatning afzalliklari:

Banklarda navbat kutmasdan dam olish kunlarisiz, pulni olishi imkonini beradi buning uchun ilovani yuklab olib identifikatsiyadan o'tish kerak bo'ladi.

Istalgan TBC Humo kartasiga pulni ayirboshlash kursi bo'yicha avtomatik ravishda so'mga aylantirish orqali qabul qilishingiz yoki virtual Visa kartasida AQSh dollarida pul qoldirish mumkin.

Lekin bu faqat Ria va Moneygram tizimlariga aloqador bo'lib, aksariyat hamyurtlarimiz pul jo'natadigan Western Union, Zolataya Korona, Contact kabi tizimlar bundan mustasno.

Bu tizimlar bilan shartnoma imzolash orqali banklardagi yuqoridagi kabi muammolarni samarali ravishda hal qilish mumkun bo'ladi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlar va ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkunki, yurtimizdagi banklar va to'lov tizimlarining ishlashi va sifati juda yaxshi.

Bu qilingan ishlar natijasida iste'molchilar uchun juda katta qulayliklar yaratildi, oxirgi 10 yil ichida tizimdagi amaliyotlar sezilarli darajada ortti.

To'g'ri yuqorida ta'kidlanganidek garchi bank tizimlari va xalqaro

Webmoney, Qiwi kabi to'lov tizimlari bilan hanuzgacha integratsiyalashmagan bo'lsada, u tizimlardan foydalanish uchun yetarlicha imkoniyatlar bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/online-payments/>
2. <https://credits.com/en/news/617-how-online-payment-systems-and-digital-banks-enable-global-connectivity-and-seamless-money-transfer.html>
3. <https://www.uzcard.uz/history>
4. [https://ru.wikipedia.org/wiki/HUMO_\(%D0%BF%D0%BB%D0%B0%D1%82%D1%91%D0%B6%D0%BD%D0%B0%D1%8F_%D1%81%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B5%D0%BC%D0%B0\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/HUMO_(%D0%BF%D0%BB%D0%B0%D1%82%D1%91%D0%B6%D0%BD%D0%B0%D1%8F_%D1%81%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B5%D0%BC%D0%B0))
5. <https://anorbank.uz/uz/about/>
6. <https://www.spot.uz/ru/2023/11/03/tbc-bank/>